

## "Maxsus toifadagi raqamni tanlash va taqdim etish" xizmatlari chegirma aksiyasi qoidalari.

"Maxsus toifadagi raqamni tanlash va taqdim etish" xizmati uchun chegirmalar" Aksiyasining mazkur Tavsifi (keyingi o'rinlarda – Aksiya deb yuritiladi) "Humans" MChJning (100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2-uy, STIR 306624856) nomuayyan shaxslar doirasiga taklifi.

### 1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Mazkur Qoidalar matnida katta harflar bilan yoziladigan so'zlar atamalardir. Atamalarning ta'rifi agar bu qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, provayder tomonidan tasdiqlangan HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlarida va <https://humans.uz/uz/> saytida berilgan, shuningdek, tariflarning tavsiflarida keltirilgan.

1.2. . Aksiya ishtirokchilari — Humans aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlarini qabul qilish orqali operator bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzgan va aksiyani o'tkazish davrida "Maxsus toifadagi raqamni tanlash" yoki "Maxsus toifadagi raqamni taqdim etish" xizmatiga buyurtma bergan jismoniy shaxslar — mijozlar.

1.3. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiya o'tkaziladigan davr: 09.02.2024-y. dan muddatsiz to bekor qilingunicha..

### 2. Aksiya Tavsifi

2.1. Aksiya davomida Mijoz 40% (qirq foiz) chegirma bilan “Maxsus toifadagi raqamni tanlash” yoki “Maxsus toifadagi raqamni taqdim etish” xizmatiga buyurtma berishi mumkin. Chegirma 1-9 toifadagi raqamlar uchun amal qiladi.

2.2. 26.05.2023 dan amaldagi aksiya tugadi.

### 3. Yakuniy qoidalar

3.1. Ushbu qoidalar provayder saytida e’lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Provayder ushbu qoidalarni bir tomonlama o’zgartirish yoki aksiyani bekor qilish huquqiga ega, bu haqda saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali xabardor qiladi. Xabarnoma sanasi — saytdagi tegishli ma’lumotlarning e’lon qilingan sana. Saytda tegishli ma’lumotlar e’lon qilingan paytdan boshlab qoidalar o’zgartirilgan va aksiya bekor qilingan, deb hisoblanadi.

3.2. . Aksiya davrida Mijoz tomonidan “Maxsus toifadagi raqamni tanlash” yoki “Maxsus toifadagi raqamni taqdim etish” xizmatiga buyurtma berilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta hisoblangan Qoidalarga to’liq va so’zsiz roziligini bildiradi.